BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.08.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

NAZAROVA NAVBAHOR AHROROVNA

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI ANTROPONIMLARNING LEKSIKOGRAFIK TADQIQI

10.00.13 – Qiyosiy va chog‘ishtirma tilshunoslik

FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Buxoro – 2026

UDK: 811.111’373+811.512.133’373

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам

The contents of the dissertation abstract for a Doctor of Philosophy (PhD) degree in Philology

Nazarova Navbahor Ahrorovna
Ingliz va o‘zbek tillarida antroponimlarning leksikografik tadqiqi 3

Назарова Навбахор Ахроровна
Лексикографическое исследование антропонимов в английском и узбекском языках.....21

Nazarova Navbahor Ahrorovna
Lexicographic study of anthroponyms in English and Uzbek languages 43

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of publications 47

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.08.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

NAZAROVA NAVBAHOR AHROROVNA

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI ANTROPONIMLARNING LEKSIKOGRAFIK TADQIQI

10.00.13 – Qiyosiy va chog‘ishtirma tilshunoslik

FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Buxoro – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.PhD/Fil3173 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.buxdu.uz) hamda «ZiyoNet» axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Haydarov Anvar Askarovich** filologiya fanlari nomzodi, professor
Rasmiy opponentlar:	**Xamidova Muborak Xafizovna** filologiya fanlari doktori (DSc), professor
	Qayumova Munavvar Sanaqulovna filologiya fanlari nomzodi, dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Samarqand davlat chet tillar instituti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi DSc.03/2025.27.12.Fil.08.07 raqamli Ilmiy kengashning 2026 yil «29» oktyabr soat 11⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: +99865 221-29-14; faks: +99865 221-27-57, e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1046 raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: +99865 221-25-87.)

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil «14» oktyabr kuni tarqatildi.

(2026 yil «14» oktyabr dagi 34 - raqamli reyestr bayonnomasi).

B.E.Kilichev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

M.Y.Xojiyeva
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

G.I.Toirova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida XX asrning ikkinchi yarmi va XXI asrning boshlanishi antroposentrizmning ilmiy tadqiqotlar metodologiyasida ustuvor yo‘nalish sifatida qaror topishi bilan xarakterlanadi. Mazkur tendensiya turli ilmiy sohalarda inson shaxsiga bo‘lgan e’tiborni kuchaytirishga, dunyoning lisoniy manzarasini o‘rganishga yo‘naltirilganligi bilan ajralib turadi. Mazkur jarayonda onomastik birliklar tarkibida alohida ahamiyat kasb etuvchi antroponimlarni tadqiq etish, xalqning turmush tarzi, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma’rifiy munosabatlarining o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi muhim lisoniy manba sifatida e’tirof etish, ularning xolistik tahlilini turli tizimli tillar doirasida amalga oshirish, lisoniy-uslubiy funksiyalarini lingvistik va ekstralingvistik nuqtai nazardan talqin qilish imkonini beradi.

Dunyo tilshunosligida antroponimlar inson va uning tafakkuri, dunyoqarashi bilan uzviy aloqada bo‘lganligi bois, ularning antroposentrik paradigmada tadqiq qilish, leksikografik tahlil qilish, semantik xususiyatlarini o‘rganish, turli tizimli tillarda yaratilgan lug‘atlarda ularni berilishi hamda antroponimlarning leksik qatlamga munosabati masalalariga bag‘ishlanayotgan tadqiqotlar salmog‘i ortib bormoqda. Zero, antroponimlar tilning leksik boyligini oshirishga, so‘z yasalishi va stilistik vositalarning rivojlanishiga, mazkur birliklarning semantik-stilistik potensialini aniqlash, turli tizimli tillar doirasida nomlanishidagi umumiy va differensial motivatsion jihatlarini izohlashga, xalqning ma’naviy merosini saqlashga, milliy o‘zlikni anglashga, madaniy aloqalarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Antroponimlarning lingvistik xususiyatlari ism, laqab, taxallus, familiya, ota ismlarining leksikasi, semantik jihatlarini izohli lug‘atlarda berilish motivlarini, o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish, ularning lug‘atlarda berilish tizimini mukammalashtirish, antroponimlarni o‘rganish tilshunoslikning turli sohalari, xususan, leksikologiya, semasiologiya, etimologiya va onomastika uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda “Bugungi globallashuv davrida har bir davlat o‘z milliy manfaatini ta’minlash, shu asnoda avvalo o‘zining bebaho madaniyatini, qadimgi qadriyatlarini ona tilini asrab-avaylash va uni rivojlantirish masalalariga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiy”[1] deb e’tirof etilayotgan hozirgi davrda o‘z milliy mentalitetini aks ettirish, til va shaxs hodisalarining lingvistik tavsiflariga tegishli kishi nomlarini to‘plash, tasniflash va yangicha yondashuvlar asosida tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Tilda antroponimlarning lison va nutqdagi o‘rnini, lingvostilistik, etnolingvistik jihatdan motivlashish asoslarini ochish, leksikografik manbalarini yaratish, tipologik xususiyatlarini aniqlash barobarida milliy-lisoniy belgilarini bilib olishga, madaniy va tarixiy hayotining rivojlanishi, muayyan til egasi bo‘lmish xalqning milliy va umumbashariy qadriyatlarini tasvirlashga keng yo‘l ochadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktyabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-son Farmoni. // https://www.lex.uz.

2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi Farmonlari; 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari; hamda Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 23-yanvardagi 40-son “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atamalar komissiyasining faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori hamda sohaga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Antroponimlarni o‘rganish tilshunoslikning alohida sohasi hisoblanib, ularning nazariy asoslari, lug‘atlarda berilishi hamda qiyosiy tahlili R.R.K. Xartman, L.P. Stupin, O.M. Karpova kabi leksikograflarning ishlarida o‘z ifodasini topgan. Tilshunoslikning keyingi taraqqiyotida ingliz antroponimlarining leksikografik tavsifi va tizimli xususiyatlari S.I. Garagulya, O.A. Leonovich, K.B. Zaytseva tadqiqotlarida o‘rganilgan bo‘lsa, onomastik leksikografiyaning umumiy masalalari V.G. Gak, B.Yu. Gorodetskiy, V.E. Staltmane, X. Kasares kabi olimlarning ilmiy izlanishlarida yoritilgan.

Umumiy leksikografiya va antroponimlarni lug‘atda aks ettirish muammolari V.V. Vinogradov, A.V.Superanskaya[2], N.A. Gradneva, V.D. Devkin, P.N. Denisov, M.V.Karpenko[3], L.D. Lebedeva, V.V. Morkovkin, L.V. Sherba[4] kabi yetuk olimlarning ilmiy ishlarida keng bayon etilgan. Shuningdek, antroponimlarning leksikografik va onomastik tadqiqiga tilshunoslardan V.I. Bolotov, V.D. Bondaletov[5], M.V. Gorbanevskiy, D.I. Yermolovich, N.P. Kolesnikov, N.B. Podolskaya[6], O.I. Fonyakova[7], Yu.A. Fedosyuk[8]lar salmoqli hissa qo‘shganlar. Ushbu sohaning lingvokulturologik aspektlarini V. fon Gumboldt, E. Sepir, A.Vejbitskaya, N.A.Baskakov[9], A.K. Matveyev[10], Ye.M. Vereshchagin, V.G.

[2] Суперанская А.В. Общая теория имени собственного. – Москва: Наука, 1973. – 366 с.; Суперанская А.В., Суслова А.В. Современные русские фамилии. – Москва: Наука, 1991. – 176 с.

[3]Карпенко М.В. Русская антропонимика. – Одесса: ОГУ, 1970. – 42 с.; Карпенко М.В. Имя собственное в художественной литературе // Филологические науки. – 1986. – № 4. – С. 34–40.

[4] Щерба Л.В. Опыт общей теории лексикографии // Языковая система и речевая деятельность. – Ленинград: Наука, 1974. – С. 265–304.

[5] Бондалетов В.Д. Русская ономастика. – Москва: Просвещение, 1983. – 224 с.

[6] Подольская Н.В. Антропонимика // Лингвистический энциклопедический словарь. – Москва: Советская энциклопедия, 1990. – 685 с.

[7] Фонякова О.И. Имя собственное в художественном тексте. – Ленинград: Изд-во ЛГУ, 1990. – 103 с.

[8] Федосюк Ю.А. Русские фамилии. – Москва: Детская литература, 1986. – 240 с.

[9]Баскаков Н.А. Русские фамилии тюркского происхождения. – Москва: Наука, 1979. – 280 с.

[10] Матвеев А.К. Ономатология. – Москва: Наука, 2006. – 290 с.

Kostomarov, V.V. Krasnix, V.A. Maslova, T.V. Toporova[11], Yu.S. Stepanov kabilar tadqiq etganlar[12].

O‘zbek tilshunosligida nomshunoslik, xususan, antroponimlar tadqiqida tilshunos Ernest Begmatovning fundamental xizmatlari alohida o‘rin tutadi[13]. Shuningdek, o‘zbek antroponimikasi masalalari E.Qilichev[14], I. Xudoynazarov, N. Husanov, B. Qilichev, M. Hamroyeva[15], Sh. Rahmatullayev[16] tomonidan turli aspektlarda o‘rganilgan. O‘z navbatida I.K. Koziyevaning dissertatsion tadqiqoti o‘zbek va rus tillaridagi shaxs nomlarining leksik-semantik va etimologik xususiyatlarini qiyosiy jihatdan yoritgani bilan ahamiyatlidir[17].

Ko‘rinadiki, amalga oshirilgan ishlarning salmog‘iga qaramay, ingliz va o‘zbek tillari materialida antroponimlarning chog‘ishtirma-leksikografik tavsifi, lug‘atlarda berilish parametrlari hamda ularning emotsional-munosabat semantikasi maxsus monografik planda yetarli darajada tadqiq etilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya mavzusi Buxoro davlat universitetining 2018-2019 yillarga mo‘ljallangan ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Pedagogik mahorat” va 2017-2021 yillarga mo‘ljallangan “Pragmalingvistika, funksional tarjimashunoslik va til o‘rgatish jarayonlari integratsiyasi” mavzusidagi ilmiy yo‘nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ingliz va o‘zbek tillaridagi antroponimlarning leksikografik xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat**:**

antroponimlarning o‘rganilish holatini aniqlash hamda bayon etilgan fikrlarga munosabat bildirish;

ingliz va o‘zbek leksikografiyasida antroponimlarni ifodalash hamda antroponimlarga oid lug‘atlarni tuzish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

ingliz va o‘zbek tillaridagi antroponimlarning nomlanish motivlarini sharhlash;

ingliz va o‘zbek antroponimlarining leksik qatlamlarga munosabatini ifodalash;

antroponimlarning leksik-semantik xususiyatlarini aniqlash va badiiy asarlarda zikr etilgan antropoindikatorlarni tadqiq etish;

har ikkala tilda antroponimlarning statistik tahlilini amalga oshirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida *Dictionary of First Names* (P.Hanks), *The Oxford Dictionary of Family Names in Britain and Ireland* (P.Hanks, R.Coates, P.McClure), *O‘zbek tilining izohli lug‘ati* (5 jildli) hamda *O‘zbek ismlari izohi*

---

[11] Топорова Т.В. Культура в зеркале языка: древнегерманские двучленные имена собственные. – Москва: Языки русской культуры, 1996. – 253 с.

[12]Степанов Ю.С. Константы: Словарь русской культуры. – Москва: Академический проект, 2001. – 990 с.

[13] Бегматов Э.А. Ўзбек тили антропонимикаси. – Тошкент: Фан, 2013. – 264 б.; Бегматов Э.А. Номлар ва одамлар. – Тошкент: Фан, 1966. – 52 б.; Бегматов Э.А. Ўзбек исмлари маъноси. – Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2007. – 608 б.

[14] Қиличев Э. Айний асарларида антропонимларнинг стилистик хусусиятлари // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1978. – № 4. – Б. 72–76.

[15] Ҳамроева М.Р. Тоҳир Малик бадиий асарларидаги антропонимларнинг лингвистик хусусиятлари: филол. фан. фалс. докт. (PhD) дисс. автореф. – Бухоро, 2022. – 53 б.

[16] Rahmatullayev Sh.N. O‘zbek xalq ertaklari tilidagi antroponimlarning lingvokulturologik tadqiqi: filol. fan. fals. dokt. (PhD) diss. – Buxoro, 2023. – 143 b.

[17] Koziyeva I.K. O‘zbek va rus tillaridagi antroponimlarning leksik-semantik va etimologik tadqiqi: filol. fan. fals. dokt. (PhD) diss. avtoref. – Buxoro, 2024. – 51 b.

(E.Begmatov) manbalarida qayd etilgan ingliz va o‘zbek tillaridagi antroponimik birliklar tanlangan.

Tadqiqotning predmetini ingliz va o‘zbek tillaridagi antroponimlarning leksikografik xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida tavsiflash, tasniflash, leksik-semantik, komponent, leksikografik va statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

ingliz va o‘zbek tillaridagi antroponimlarning leksikografik xususiyatlari har ikkala xalqning milliy ruhi, madaniy muhiti, tarixiy merosi, ijtimoiy tuzilmasi, estetik didi, shaxsning ijtimoiy holati, jinsi, qarindoshligi, e’tiqodi, ishonchi, kasbi, nasabi kabi omillar integratsiyasi negizida shakllanganligi asoslangan;

ingliz tilidagi antroponimlar asosan o‘zlashma qatlam sifatida namoyon bo‘lib, ularning shakllanishi va qo‘llanilishi globalizatsiya va ijtimoiy tabaqalanish ta’sirida boyiganligi, ularda ism va familiya ijtimoiy maqom hamda shaxsiy identifikatsiyani ifodalovchi yetakchi komponent ekanligi, o‘zbek tilidagi antroponimlarda esa xalqning tarixiy xotirasi, diniy e’tiqodi va milliy qadriyatlarini aks ettiruvchi qatlam yetakchilik qilishi hamda laqab, taxallus va muqobil nomlarning keng qo‘llanishi dalillangan;

qiyoslanayotgan tillar antroponimlarining leksikografik va etnomadaniy xususiyatlari *doxonimlar, kreatonimlar, innovonimlar, futuronimlar, kiberonimlar (kiberizmlar), traditsionimlar k*abi tiplar funksionalligining birlamchi omillari ekanligi isbotlangan;

ingliz va o‘zbek ismlaridagi etimologik, madaniy, tarixiy, ijtimoiy va hissiy ma’no qatlamlari integratsiyasida hosil bo‘lgan hissiy yondashuv, shaxsiy qiymat va ijtimoiy-psixologik konnotatsiyalar kontekstda emotsional munosabatni ifodalovchi antroponimlar semantik guruhini hosil qilishi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ingliz va o‘zbek tillari tizimiga oid antroponimik birliklarning leksikografik tadqiqi umumiy tilshunoslik, qiyosiy tilshunoslik, lingvomadaniyatshunoslik, lug‘atchilik, onomastika kabi fanlar doirasida turli aspektda o‘rganish asosida chiqarilgan xulosalar ilmiy hamda amaliy ahamiyat kasb etadi va ulardan onomastika sohasida tadqiqot olib borayotgan tadqiqotchilar uchun nazariy manba bo‘lib xizmat qiladi;

har ikkala tilda mavjud antroponimik birliklar ikkala xalq tarixi, madaniyati, ma’naviyati, urf-odatlari, an’analari, diniy e’tiqodi va boshqa ijtimoiy holatlarini aks ettirishi aniqlangan;

har ikkala tilda tanlangan badiiy asarlardagi antroponimlar, ularning izohli lug‘atlarda berilishi, asar qahramonlarining turli millatga mansub ekanligi, e’tiqodiy qarashlarining o‘ziga xosligi bilan ajralib turishi izohlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot mavzusi bo‘yicha chiqarilgan xulosalarning aniqligi, nazariy ma’lumotlarning ilmiy manbalarga asoslanganligi, tanlab olingan badiiy manbalarning tadqiqot predmetiga muvofiqligi, nazariy xulosalarning tavsiflash, tasniflash, leksik-semantik, komponent, leksikografik va statistik tahlil metodlari vositasida chiqarilgani, mavzuning jahon tilshunosligining ustuvor ilmiy konsepsiyalari asosida o‘rganilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati, dissertatsiyada ishlab chiqilgan tamoyillar, tavsiyalar tilshunoslikdagi lug‘atchilik yo‘nalishida, antroponimlarning ikki til qiyosida izohli lug‘atlarini yaratishda, shuningdek, shu sohada ilmiy izlanishlar olib borayotgan tadqiqotchilar uchun ilmiy manba bo‘lishi, soha rivojiga ma’lum darajada hissa qo‘shishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati, til materiallari va xulosalaridan oliy ta’lim muassasalarining filologiya va tillarni o‘qitish (ingliz va o‘zbek) yo‘nalishlari bakalavr hamda magistr mutaxassisligi talabalari “Onomastika”, “Matn tilshunosligi”, “O‘zbek onomastikasi”, “Zamonaviy lingvistika” fanlaridan darslik va o‘quv qo‘llanmalar yaratish, shuningdek, ushbu ta’lim yo‘nalishlarida ma’ruza va seminar mashg‘ulotlarini olib borish uchun xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ingliz va o‘zbek tillaridagi antroponimlarning leksikografik tadqiqini amalga oshirish jarayonida erishilgan ilmiy natijalar asosida:

ingliz va o‘zbek tillaridagi antroponimlarning leksikografik xususiyatlari har ikkala xalqning milliy ruhi, madaniy muhiti, tarixiy merosi, ijtimoiy tuzilmasi, estetik didi, shaxsning ijtimoiy holati, jinsi, qarindoshligi, e’tiqodi, ishonchi, kasbi va nasabi kabi omillar integratsiyasi negizida shakllanganligiga nazariy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2017-2020-yillarda bajarilgan OT.F1-029 “O‘zbek davlatchiligi tarixida sug‘diy til va yozuvning tutgan o‘rni (mil. av. II-milodiy XII asrlar)” mavzusidagi fundamental loyihasida foydalanilgan (Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 2-noyabrdagi 04/1-3117-son ma’lumotnomasi); Natijada ikki xalq yozuvchilar asarlarida qo‘llanilgan antroponimlar leksikografiyada berilishi, ular orasidagi mushtarak va farqli jihatlar badiiy asarlarda tahlil qilinish imkonini bergan;

o‘zbek badiiy kontekstida antroponimlar laqab, taxallus va muqobil nomlarning keng qo‘llanishi xalqona obrazlarni tipiklashtirishda stilistik imkoniyatlarning boyligini ko‘rsatsa, ingliz matnlarida ism va familiya orqali ijtimoiy maqom va shaxsiy identifikatsiya yetakchi komponent sifatida badiiy matnning estetik ta’sirchanligini oshirish, poetik matnni shakllantirishda xizmat qilishiga oid nazariy xulosalardan Toshkentdagi AQSH Elchixonasi tomonidan moliyalashtirilgan SUZ80021IN3103-raqamli loyiha asosida tashkil etilgan “Amerika adabiyoti klubi” xalqaro loyihasida foydalanilgan (Buxoro davlat universitetining 2025-yil 20-fevraldagi 06/1127-son ma’lumotnomasi); Natijada antroponimik birliklarning ingliz va o‘zbek badiiy asarlaridagi ahamiyati ko‘rsatilib, tadqiqotga oid ilmiy xulosalar, tavsiyalar va takliflar ushbu loyiha dasturini boyitishga hamda uning ilmiy qiymatini oshirishga xizmat qilgan;

qiyoslanayotgan tillar antroponimlarining leksikografik va etnomadaniy xususiyatlari *doxonimlar, kreatonimlar, innovonimlar, futuronimlar, kiberonimlar (kiberizmlar), traditsionimlar* kabi tiplar funksionalligining birlamchi omillari ekanligi bilan bog‘liq xulosa va natijalardan Buxoro viloyat teleradiokompaniyasida “Intervyu plyus”, “Assalom Buxoro” ko‘rsatuvlarining ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (Buxoro viloyat teleradiokompaniyasining 2024-yil 29-oktyabrdagi 1/09-163-son ma’lumotnomasi); Natijada ushbu teleko‘rsatuvlar uchun

tayyorlangan materiallarning mazmuni mukammallashuviga, ko‘rsatuvning ilmiy-ommabopligini ta’minlashga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 7 ta, jumladan 4 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 14 ta ilmiy ish, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta ilmiy maqola, ulardan 4 ta respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, umumiy hajmi 160 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, olingan natijalarning ishonchliligi, ishning nazariy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi, dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Antroponimlarning o‘rganilishi va leksik tizimda tutgan o‘rni”** deb nomlangan birinchi bobi uch fasldan tarkib topgan. Mazkur bobda antroponimlarning o‘rganilish muammosi, ularning tiplari, semantik xususiyatlari, antroponimlarning vazifalari va leksik tizimda turgan o‘rni, badiiy asarlarda antropoindikatorlardan foydalanish mahorati masalalari tahlil qilingan.

Bobning birinchi fasli *“Antroponimlarning o‘rganilish muammosi”* deb nomlanib, antroponimlar va ularning o‘rganilish masalalari yoritilgan.

Onomastika doirasida turli xil yangidan yangi tadqiqot obyektlari yuzaga kelib, shulardan biri bu antroponimlar hisoblanadi. Antroponimlar – bu insonlarga beriladigan nomlarning umumiy atamasi bo‘lib, tilshunoslikning onomastika sohasida muhim o‘rin egallaydi. Ular insoniyat tarixini, madaniyatini, jamiyat tuzilishini va shaxslarning o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi muhim til birliklaridir. “O‘zbek ismlari tarixi xalq tarixi kabi sermazmun va mohiyatlidir. Bunda xalqning urf-odatlari, diniy e’tiqodi, kundalik turmush zavqi-yu tashvishlari, baxti va kulfati o‘z aksini topgan. Shunday boy madaniy merosni o‘rganish, uni har tomonlama tadqiq etish buyuk ajdodlarimiz oldidagi qarzimiz sanaladi”, – deb ta’kidlaydi A.Haydarov.[18] Darhaqiqat, tilshunoslik fanlararo aloqalarning shiddatli rivojlanishi tufayli antroponimlarni tahlil qilish imkoniyatlarini (chegaralarini) kengaytirdi. Fikrimizcha, dunyo va o‘zbek tilshunosligida onomastikaning umumiy masalalarini o‘rgangan A.V.Superanskaya, V.D.Bondaletov, M.V.Gorbanevskiy antroponimlarni bir tomondan ko‘rib chiqishga turtki bo‘ldi. Tilshunoslardan A.B.Superanskaya, R.B.Xog, V.V.Ivanov, J.S.Vels ingliz antroponimlarining tarix-madaniy, morfologik jihatlarini, o‘zbek tilshunoslaridan D.Abdurahmonov,

[18] Ҳайдаров А. Ўзбек антропонимларининг асослари хусусида // Ономастика масалалари: илмий мақолалар тўплами. – Тошкент: Наврўз, 2018. – Б. 51-55.

O‘.Nosirov, F.Abdullayev, M.Shamsiyeva, X.Doniyorov, B.Qilichev, M.R.Hamroyeva, I.K.Koziyevalar o‘zbekcha ismlarning lisoniy xususiyatlarini, X.Azamatov, Ya.Menajiyev, D.Abdurahmonov, E.Begmatovlar esa antroponimlarning etimologik va semantik tavsifini tadqiq etishgan. Ingliz va o‘zbek antroponimikasiga oid ilmiy ishlar va tadqiqotlardagi erishilgan yutuqlar juda samarali va ancha e’tiborga loyiq bo‘lsa-da, bu sohada amalga oshirilishi lozim bo‘lgan bir qator muammolar yechimini kutmoqda. Jumladan, muhim vazifalardan biri sanalgan o‘zbek ismlarining imlo va izohli lug‘atlarini tuzib, qardosh bo‘lmagan ingliz va o‘zbek tillarida antroponimlarning chog‘ishtirma tahlilini amalga oshirish, har ikkala tildagi antroponimlarning leksik qatlamga munosabati masalalarini yoritish va ularni leksikografik tadqiqi bugungi kunda tilshunoslar, ayniqsa nomshunos olimlar oldidagi aktual vazifalardandir.

Bobning ikkinchi fasli *“Onomastik birliklarda antroponimlarning o‘rni”* deb nomlanuvchi bo‘limida onomastika sohasining katta qismini tashkil etuvchi kishi nomlari va ularning tiplari haqida fikr yuritiladi. Onomastika – atoqli nomlar, ularning paydo bo‘lishi va o‘zgarish tarixini o‘rganuvchi tilshunoslik bo‘limi bo‘lib, o‘z tizimida yana mayda tizimchalarga bo‘linadi, ularning bir qismini antroponimlar tashkil etadi. Antroponimlarning tiplari ingliz olimlari ishlarida, jumladan, Patrick Hanksning *“Dictionary of Surnames”* hamda uning R. Coates va P. McClure bilan hammuallifligidagi *“The Oxford Dictionary of Family Names in Britain and Ireland”* asarlarida atroflicha yoritilgan bo‘lib, unda antroponimlarning turli tiplari jumladan, patronim va laqab – alohida turkum sifatida qayd etilgan. *“O‘zbek tili antroponimikasi”*da esa E. Begmatov ism, laqab, taxallus, familiya kabi antroponimik birliklarning tasnifini ishlab chiqqan. Ushbu ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, antroponimlarning tipologik tarkibi turli tadqiqotchilar tomonidan turlicha mezonlar asosida tasniflangan bo‘lib, bu – ularni yanada kengroq qamrab oluvchi yagona tasnifni ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltiradi. Shu nuqtayi nazardan, mazkur tadqiqotda mavjud tasniflar qayta ko‘rib chiqilib, antroponimlar bilan bog‘liq, ularning zamonaviy ijtimoiy-madaniy xususiyatlarini ifodalovchi oltita yangi tip taklif etiladi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi sifatida taklif etilayotgan mazkur tiplar nomlanishida grekcha va lotincha leksik birliklar hamda -onim komponentidan foydalanildi. Ular shaxs nomlarining yaratuvchilik, innovatsion xususiyat, ijtimoiy-madaniy mazmun, kelajak konsepsiyasi, kibermakon va an’anaviylik kabi semantik belgilarini ifodalashga xizmat qiladi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi sifatida esa quyidagi yangi tiplar taklif qilindi: *1. Doxonimlar* – “doxa” (shon-shuhrat, obro‘, sharaf) va “onim”, mashhur yoki buyuk shaxslarning nomlarini bildiruvchi birliklar; *2. Kreatonimlar* –“creator” (yaratuvchi) va “onim”, yaratuvchilar bilan bog‘liq nomlar; *3. Innovonimlar* – “innovatio” (yangilik) va “onim”, yangi g‘oyalar yoki ixtirolar nomlari; *4. Futuronimlar* – “futurum” (kelajak) va “onim”, kelajakdagi tendensiyalar yoki fikrlarni ifodalovchi nomlar; 5. *Kiberonimlar (kiberizmlar)* – “kybernetes” va “onim”, kibermuhitda yoki raqamli texnologiyalar bilan bog‘liq ijtimoiy yoki madaniy fenomenlarni ifodalovchi nomlar; 6. *Traditsionimlar* – “traditio” (an’ana) va “onim”, odamlarning urf-odatlari, madaniyati va an’analariga tegishli nomlarni bildiradi. Mulohazalardan ayon bo‘ladiki, o‘zbek tilidagi antroponimlarning mavjud tiplari ularning hajmi va chegaralari hozirga qadar belgilangan emas. Professor

E.Begmatov aytganidek: “Antroponimlarning bir qator nazariy va amaliy muammolari ozining ilmiy asosi va teran tadqiqini kutmoqda”[19].

Bobning uchinchi fasli *“Antroponimlarning leksik-semantik xususiyatlari”* deb nomlangan. Ingliz va o‘zbek tilshunosligida shaxs ismlari milliy madaniyat, din, tarix va ijtimoiy mavqe kabi omillar asosida shakllanadi. Ingliz nomshunosi Patrick Hanks *“Dictionary of First Names”* asarida antroponimlarni asosan tarixiy-etimologik manbalar (13 ta guruh) bo‘yicha, o‘zbek olimi E.Begmatov esa bevosita *“O‘zbek tili antroponimikasi”* asarida leksik-semantik o‘zaklar (23 ta guruh) asosida tasniflagan. Biroq mazkur an’anaviy tasniflarda nomlovchi subyektning ism egasiga nisbatan bildirgan hissiy-baholovchi munosabati alohida guruh darajasiga ko‘tarilmagan. Tadqiqotda ushbu lisoniy bo‘shliqni to‘ldirish maqsadida antroponimlarning *“Emotsional-munosabat guruhi”* mustaqil guruh sifatida taklif etiladi. Mazkur guruh ismning shunchaki obyektiv ma’nosini emas, balki nomlash aktida va badiiy matn diskursida namoyon bo‘luvchi ijobiy (*Joy, Hope, Farishta, Malak, Baxtiyor*) yoki salbiy (*Mallory, Ofat, Gadoyboy*) konnotativ ma’nolarni aks ettiradi. Ushbu yondashuv antroponimik lug‘atlarda “erkalash”, “kinoya”, “hurmat” kabi tarqoq uslubiy belgilarni yaxlit tizimga solish hamda badiiy matnda subyekt-obyekt munosabatlarini chuqurroq tadqiq etish imkonini beradi. Shunday qilib, antroponimlar murakkab lisoniy-madaniy birliklar sifatida nafaqat nominativ, balki kuchli pragmatik va emotsional-ekspressiv funksiyaga ega ekanligi isbotlandi.

Ikkinchi bob **“Ingliz va o‘zbek leksikografiyasida antroponimlarning o‘rni”**deb nomlangan bo‘lib, ushbu bob ikki fasldan iborat, unda leksikografiya, ingliz va o‘zbek leksikografiyasida antroponimlarning xususan, Tohir Malikning “Shaytanat” va Mario Pyuzoning “Cho‘qintirgan ota” asarlari antroponimlari to‘liq leksikografik tahlil qilingan. Ikki asar leksikografiyasida nomlar izohlanishi: *FREDERICO (7-bet) / Jinsi: erkak / O‘g‘il bolalar orasidagi qo‘llanilish darajasi:10 700 Ismining ma’nosi: tinchliksevar hukmdor / Kelib chiqishi: qadimgi nemischa / Ishlatilishi: Italiya, Angliya, Fransiya/ Misol:The second son, Frederico, called Fred or Fredo, was a child every Italian prayed to the saints for. Dutiful, loyal, always at the service of his father, living with his parents at age thirty.*

“The Godfather” asarida yozuvchining maqsadi tashqi nufuz – ichki zaiflik kontrasti, ya’ni ismning ma’nosi – “tinchlikparvar rahbar”, lekin Fredo obrazida biz buning aksi bo‘lgan odamni ko‘ramiz. Frederiko – Vito Korleonening o‘rtancha o‘g‘li. U na Santino dadilligi, na Mayklning aql-zakovatiga ega. Ism orqali yozuvchi uning “oraliq” ya’ni o‘z o‘rnini topolmagan zaif, ishonchsiz inson ekanligini tasvirlaydi. Bu esa Fredoning fojiali qismatiga, xiyonati va yakuniy o‘limiga nisbatan o‘quvchida achinish va ruhiy og‘riq uyg‘otadi. Mario Pyuzo Frederiko ismini tanlash orqali o‘rtacha, irodasiz va mudhish qismatli xarakterga ega odamning obrazini ironik va badiiy jihatdan kuchaytirgan.

MICHAEL (8-bet) /Jinsi: erkak / O‘g‘il bolalar orasidagi qo‘llanilish darajasi: 37 072 / Ismining ma’nosi: kim xudoga o‘xshaydi, nazir / Kelib chiqishi: ibroniy / Ishlatilishi: G‘arbiy Evropa/ Misol: The third son, Michael Corleone, did not stand with his father and his two brothers but sat at a table in the most secluded corner of the garden. But even there he could not escape the attentions of the family friends.

[19] Бегматов Э., Ҳусанов Н., Ёқубов Ш., Боқиев Б. Ўзбек тарихий номшунослигининг долзарб муаммолари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1992. – № 5-6. – Б. 24-28.

“Godfather” asarida Maykl ismida bir nechta badiiy va ma’naviy maqsadlar yotadi, bu ism Bibliyadagi bosh farishta – Mikoil nomidan olingan bo‘lib, u yovuzlikka qarshi kurashuvchi, adolatni himoya qiluvchi kuch sifatida tanilgan. Bu esa Maykl Korleone obrazining ichki qahramonlik va qorong‘ulik o‘rtasidagi ziddiyatini aks ettiradi. U oila sha’nini himoya qilish maqsadida jinoyat olamiga kiradi, keyinchalik katta mafiyaning sovuqqon yetakchisiga aylanadi. Otasi Vito an’anaviy mafiyani ifodalasa, Mayklda zamonaviy, aqlli va strategik rahbar, diniy, dramatik va chuqur psixologik ifoda mujassam. Bu oddiy va begunoh yigitdan mafiyaning ko‘rinmas hukmroniga aylangan inson timsolini yozuvchi shu ism orqali aks ettiradi.

Asadbek (22-bet, 4-kitob,21-jild) / Jinsi: erkak /O‘g‘il bolalar orasidagi qo‘llanilish darajasi: 37 / Ismining ma’nosi: Asad oyida (shamsiy yil hisobi bilan beshinchi oy nomi iyul, avgust oylariga to‘g‘ri keladi) tug‘ilgan bola yoki asad - sher, arslon, ya’ni qo‘rqmas, dovyurak, qudratli deganidir / Kelib chiqishi: arabcha / Ishlatilishi:O‘zbekiston / Misol:Bu gapdan keyin Asadbek unga yalt etib qaradi. To‘lqin u odamning xatchi ekanini ta’kidlamasa ham Asadbek yaxshi biladi. Krasnoyardan qaytgach, otasining xatlarini kim yoqib yuborganini bilganda uni bo‘g‘ib o‘ldirgisi kelgandi.

Tohir Malik “Shaytanat” asaridagi bosh qahramoniga Asadbek ismini berar ekan, bu tanlov bejiz emas. “Asad” – jasorat, “Bek” – rahbarlik timsoli. Yozuvchi shu nom orqali qahramonning salobati, kuchi va mafkurasini badiiy tarzda aks ettiradi. Asadbek – xalq ko‘zida hurmatli, lekin aslida jinoyat olamining hukmdori ekanligi, bu ikkiyuzlamachilik obrazi orqali muallif jamiyatdagi ichki ziddiyatlarni ochib beradi. Yozuvchi zohiran chiroyli, salobatli ism ortida botinan yovuz obraz ya’ni jinoyatchi shaxs yashirinayotganiga urg‘u beradi. Shunday qilib, Asadbek nomi orqali yozuvchi kuch, rahbarlik va yovuzlikni bir obrazda jamlab, zamonaviy jamiyatning murakkab ijtimoiy muammolarini yoritadi.

Zaynab (6-bet, 4-kitob, 21-jild) /Jinsi: ayol / Qiz bolalar orasidagi qo‘llanilish darajasi: 84/ Ismining ma’nosi: Ushbu Zaynab ismi asosan qiz bolalarga qo‘yiladi va bu ism arabcha bo‘lib, quyidagi ma’nolarga ega: Kelishgan, bo‘yi raso, ko‘rinimli, go‘zal hamda gullardek nafis. Zaynab nomi Payg‘ambarimiz Muhammad (sollallohu alayhi vasallam) qizlarining ismi bo‘lgan / Kelib chiqishi: arabcha / Ishlatilishi: O‘zbekiston, Turkiya / Misol: Eri Asadbekning, qizi Zaynabning ayanchli ahvolidan bexabar bo‘lsa-da, o‘ziga ham noma’lum bir tuyg‘u ko‘nglini g‘ashlik buluti bilan chirmab qo‘ygan edi.


Tohir Malik “Shaytanat” asarida Zaynabning ichki kuchi, sadoqati va fojiali taqdirini mujassam etadi. Bu ism ilk qarashda go‘zallik va muloyimlikni ifodalasa-da, uning ortida og‘riqli hayot, ruhiy azob va ichki iztiroblar bilan yashiringan olam, muhabbat va xiyonat, umid va qayg‘u o‘rtasida ziddiyatni ko‘rsatadi. Yozuvchi bu obraz orqali jamiyatdagi ayollarning yashirin kechinmalari, yurakdagi nolalarini tasvirlaydi. Zaynab – go‘zallik pardasi ortidagi sabr, iroda, matonat va fojianing badiiy ifodasidir.


Bobda shuningdek, ingliz va o‘zbek asarlarida laqab va taxalluslar, antroponimlarning boy madaniy uyushmalari va ma’nolaridan tashqari, o‘rganishga arziydigan yana bir qancha xususiyatlar mavjudligi yoritilgan.

“Cho‘qintirgan ota” va “Shaytanat” asarlaridagi qahramonlarning bir necha nominativ birliklari yoritilgan. M*ario Pyuzo (1-chizma) va Tohir Malik (2-chizma) asarlari antroponimlarning qaysi turi qo‘llanmasin, u faqat nominativ vazifa emas, balki ma’lum maqsadni amalga oshirishga xizmat qiladi. Statistik ma’lumot quyidagicha:*

”Cho‘qintirgan ota” va “Shaytanat” asarlariidagi qahramonlarning bir necha nominativ birliklari statistik ma’lumoti

GODFATHER				**SHAYTANAT**			
	Antroponim	*Soni*	*Foizi*		*Antroponim*	*Soni*	*Foizi*
1	**Ism**	**53**	**66.25%**	1	**Ism**	**312**	**56.22%**
2	**Familiya**	**17**	**21.25%**	2	**Familiya**	**84**	**15.1%**
3	**Laqab**	**6**	**7.5%**	3	**Laqab**	**141**	**25.4%**
4	**Ota ismi**	**3**	**3.75%**	4	**Ota ismi**	**16**	**2.9%**
5	**Taxallus**	**1**	**1.25%**	5	**Taxallus**	**2**	**0.4%**
	Jami	**80**			**Jami**	**555**	






Bobning ikkinchi fasli *“Ingliz va o‘zbek tillarida antropoindikatorlar”* deb nomlangan, shuningdek asarlardagi antropoindikatorlar xususiyatlari to‘g‘risida bayon etilgan bo‘lib ingliz va o‘zbek tillaridagi antropoindikatorlar qiyosiy tahlil qilingan. Antroponimlarni tilning lug‘at tarkibida o‘ziga xos alohida bir tizimga birlashtiruvchi vosita bu indikatorlardir. Antropoindikatorlar mohiyatan ikkiga bo‘linadi: Ichki va tashqi indikatorlar. Ular konnotativ ma’no ifodalab, kishi ismlari tarkibida kelib uni biror jihatdan xarakterlaydi. Indikatorni qabul qilgan har bir antroponim shu indikator uchun mikrotekst vazifasini bajaradi. Ichki indikatorlar deganda antroponimdagi antroponimik belgisi uning o‘z ichki imkoniyatidan anglanib turishi nazarda tutiladi, shuningdek ularning bosh harf bilan yozilishi, ma’lum bir qurshovda uchrashi va shu nutqda o‘zaro ichki guruhlarga xoslanishi (*Laylo, Manzura – ayollar; Qobil, Botir – erkaklar ismlari kabi*) tushuniladi.

Antroponimlarda turli affiksoid va ma’no umumlashtiruvchi tavsifiy so‘zlar tashqi indikatorlik vazifasini bajaradi. Antroponimlarga qo‘shilish xususiyatiga ko‘ra indikatorlar quyidagilarga bo‘linadi: *1. Erkaklar ismiga xos. 2. Ayollar ismiga xos. 3. Erkak va ayol ismiga qo‘shilishiga ko‘ra betaraf bo‘lgan antropoindikatorlar.*

Tohir Malik asarlarida *-ota, -xola, -aka, -opa, -chol, -bobo; -boy, -bek, -jon, -xon, -begim* kabi antropoindikatorlardan unumli foydalangan. O‘z navbatida bu antropoindikatorlarni quyidagi ikki guruhga ajratish mumkin:

1) qo‘shimcha antropoindikatorlar*: -bek, -xonim, -xo‘ja, -jon, -xon, -begim;* 2) so‘z antropoindikatorlar: *-aka, -chol, -bobo, -opa, -xola, -tog‘a.*

Mario Pyuzo esa asarida ko‘proq so‘z antropoindikatorlarlardan unumli foydalangan. - *don; -miss; -missis;-mister;-dr;*



Antropoindikatorlardan foydalanish ham ijodkorning o‘ziga xos uslubidir. Ijodkor antropoindikatorlar orqali o‘zining qahramonlari haqida qandaydir ma’lumot beradi, ularga bo‘lgan munosabatiga ishora qilar ekan. Bundan tashqari antropoindikatorlardan foydalanish ijodkorni kitobxonga yaqinlashtiruvchi vositalardan biridir. Tohir Malik va Mario Pyuzo qahramon tilidan so‘zlashi uchun asosiy yordamni xuddi ana shu antropoindikatorlar bergan. Ismlarni qo‘llashda adib faqat indikatorlar bilan cheklanib qolmagan, balki antroponimik birliklardan ham foydalangan, bunda ijodkor personajining kasbini, millatini yoxud kamchiligini ko‘rsatmoqchi bo‘lgan, buni quyidagi misollar orqali ko‘rish mumkin: *Abdurahmon tabib, Nozim parang, Sherbek polvon, Sobitxon qori, Jo‘lon qirg‘iz, murdasho‘y Bonasera, nonvoy Nazorin, xo‘ppasemiz Piter Klemensa, baqaloq Klemensa, bruklinlik Tessio.* Shunday qilib, adib uslubidagi o‘zgachalikda ham antropoindikatorlar katta ahamiyat kasb etib, onomastik birliklar til lug‘at tizimida o‘ziga xos xususiyat va mavqega ega, ularni badiiy asar matni bilan bog‘lab tahlil va tadqiq qilish muhim o‘rin tutadi.

“Ingliz va o‘zbek antroponimlarining leksik qatlamlarga munosabati” deb nomlangan uchinchi bobning birinchi faslida *“Ingliz antroponimlarining leksik qatlamlari”* mukammal o‘rganilgan, o‘z va o‘zlashgan qatlamlari tadqiq qilingan. Tilshunos olim Devid Kristal[20] o‘zining *“The Cambridge Encyclopedia of the English Language”* asarida leksik qatlamni o‘rganish tilning ishlash mexanizmini, odamlar munosabatlarini va madaniy an’analarni tushunishga yordam berishini hamda tilning o‘zgaruvchan tabiatini ochib berishini ta’kidlagan. Ingliz tilining o‘z qatlami qadimgi ingliz tilidan kelib chiqqan bo‘lib**,** qadimgi ingliz tili german tillariga mansub, xususan g‘arbiy german tillari oilasiga kiradi. Anglo-Sakson davri (taxminan 449-1066 yillar) - bu qadimgi ingliz tili (Old English) gullab-yashnagan

[20] David Crystal. The Cambridge Encyclopedia of the English Language. – 3rd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2019. – P. 134.

davr. Bugungi ingliz tili uchun asos bo‘lgan Anglo-Sakson davri ingliz tili va madaniyatining rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Aynan shu davrda ingliz adabiyoti rivojlandi va “Beowulf” kabi eposlar yaratildi. Anglo-Sakson davri, bugungi ingliz tilidan farq qilsa-da, o‘z qatlamiga mansub ko‘plab so‘zlar, o‘z qatlamiga mansub ko‘plab so‘zlar, grammatik tuzilmalar va madaniy elementlarni meros qoldirgan.

O‘z qatlamga oid nomlar alohida bir guruhni tashkil qilib, bular sirasiga bir necha ma’no guruhiga mansub ismlarni kiritish mumkin. Quyida ayrim *Alfred, Ashley, Edgar, Edmund, Edward, Edwin, Harold va Oswald* ismlari ingliz tilidan kelib chiqqan anglo-sakson nomlaridir. Ingliz tilidagi nomlarning o‘ziga xos xususiyati muhim oilalarning familiyalari bo‘lib, dastlab siyosiy qo‘llab-quvvatlash yoki homiylikni ko‘rsatish uchun berilgan nomlar sifatida ishlatiladi. Ularning aksariyati *Cecil, Gerald, Howard, Percy, Montague, Stanley* yoki *Gordon* kabi erkak ismlari bo‘lsa-da ba’zilarida *Cecilia* yoki *Geraldine* kabi ayol ismi versiyalari ham mavjud. Shuningdek, avliyolarning *Xavier* familiyasi ham ko‘pincha katoliklar tomonidan qo‘llaniladi. *(Ism tahlili: Alfred-Jinsi: erkak / Kelib chiqishi: eski inglizcha / So‘z ma’nosi: Anglo-sakson nomi Elfreddan, germancha -ælf- “elf” va -ræd- “maslahatchi” degan so‘zlardan olingan./ Taxallus(lar): Al, Alf, Alfy, Alfie, Fred, Freddy).*

Ingliz tilidagi o‘ziga xos lug‘aviy qatlam ko‘pincha qadimgi ingliz tilidan kelib chiqqan, lekin boshqa tillarning ta’siri natijasida rivojlanish davomida o‘zlashma so‘zlar bilan ham boyigan. Ingliz tilida ibroniy, fransuz, yunon, nemis va lotin tillaridan o‘zlashgan ismlar ingliz madaniyatiga va tarixiga chuqur ta’sir o‘tkazgan. Ularning o‘zlashuvida diniy ta’sir, madaniy almashinuv, zamonaviylik va til o‘zgarishlari muhim rol o‘ynagan. Xususan, ibroniy tilidan kirib kelgan ismlar Xristian diniy va Bibliya orqali keng tarqalgan. Shuningdek, fransuz, yunon va lotin tillaridan olingan ismlar ingliz adabiyoti, falsafa, musiqa va tarix sohalarida keng qo‘llanilib, madaniy boylikni oshirgan[21]. Quyidagilar o‘zlashgan ibroniy ismlardir: *Daniel, David, Elizabeth, Susan, Aaron, Benjamin, Zadoc, Lot, Malakhiya, Malchi, Michael, Nazar, Nathan, Nahum, Nayim, Noya, Rafail, Selaphiel, Samuel, Sami, Samson, Senen, Seraphim, Solomon ismlari ingliz tilida o‘zlashgan ibroniy nomlardir.(Ism tahlili: Eva - Jinsi: ayol / Kelib chiqishi: ibroniycha / So‘z ma’nosi: hayot, tirik/ Yahudiy Bibliyasiga ko‘ra birinchi ayolning ismi. O‘zbek tilida bu nomning Havaxon, Havojon shakllari mavjud)*[22].

